



2021- yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida qurilish ishlari

2021- yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida jami **5 619,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,9 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **264,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati **76,1 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,7 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi, % da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Andijon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **34,3 %** yoki 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **104,0 %**)gatoʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-dekabr
- 2021- yil yanvar-dekabr


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,4 %** to'g'ri kelib, 2020- yil yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **114,1 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **67,4 %** ni tashkil etgan holda **3 789,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **27,9 %** ni tashkil etdi yoki **1 565,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **101,9 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **159,5** mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **87,1 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5 459,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **108,7 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2021-yil yanvar-dekabr oylarida

Shahar va tumanlar	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Viloyat bo'yicha:	5 619,1	159,5	2,8	5 459,6	97,2
Andijon sh.	1 927,7	5,6	3,5	1 922,1	96,5
Xonobod sh.	137,8	-	-	137,8	100,0
tumanlar :					
Oltinko'l	337,6	16,9	10,6	320,7	89,4
Andijon	564,4	10,7	6,7	553,8	93,3
Baliqchi	172,1	8,3	5,2	163,8	94,8
Bo'ston	224,9	7,9	5,0	216,9	95,0
Buloqboshi	106,6	7,0	4,4	99,6	95,6
Jalaquduq	273,5	20,9	13,1	252,7	86,9
Izboskan	211,3	8,7	5,5	202,6	94,5
Ulug'nor	140,4	7,5	4,7	132,9	95,3
Qo'rg'ontepa	150,3	9,5	6,0	140,8	94,0
Asaka	226,1	9,5	6,0	256,6	94,0
Marhamat	245,4	10,9	6,8	234,5	93,2
Shahrixon	388,3	15,5	9,7	372,8	90,3
Paxtaobod	284,3	8,0	5,0	276,3	95,0
Xo'jaobod	188,2	12,5	7,9	175,7	92,1

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,% da

2020-yil yanvar-dekabr

11,9



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

12,1



Fuqarolik obyektlari qurilishi

76,0



Bino va inshootlar qurilishi

2021-yil yanvar-dekabr

8,5



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

16,3



Fuqarolik obyektlari qurilishi

75,2



Bino va inshootlar qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,4 %** ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,4 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **6,2 %** punktga ko'payib, **61,6 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yil yanvar - dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,8 %** punktga ko'payib, **37,0 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,8 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **7,2 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,2 %** (**0,5 %** punktga kamaydi).






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,1 %** punktga kamaydi va **3,2 %** ni tashkil etdi.

Qolgan **96,8 %** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,1 %** punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021-yil yanvar-dekabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Andijon sh.
1 927,7

2

Shahrixon
388,3

1

Andijon
564,4

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Xonobod
137,8

2

Ulug'nor
140,4

1

Buloqbohi
106,6

3





Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: M. Ashurova

Aloqa telefoni: (74) 228-29-37